https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Azimova Dildora Maxmudjonovna
Namangan davlat texnika universiteti, katta o‘qituvchisi, PhD
https://orcid.org/0009-0003-7179-6202

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BUXGALTERIYA VA AUDIT TERMINLARINING IZCHILLIGI: KORPUS VA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi buxgalteriya va audit terminlarining statistik va leksikografik tahlili keltirilgan. Tadqiqot korpus lingvistikasi, kognitiv terminshunoslik va terminografiya asosida amalga oshirildi. Ingliz tilidagi *British National Corpus (BNC)*, *Corpus of Contemporary American English (COCA)*, *IFRS* va *ISA* hujjatlari hamda o‘zbek tilidagi normativ va o‘quv manbalardan foydalanildi. Tahlil jarayonida terminlarning chastotasi, tarjima variantlari, sinonimiya va antonimiya munosabatlari o‘rganildi. Natijada o‘zbek terminshunosligida izchillikni ta’minlash uchun yagona normativ termin shakllarini ishlab chiqish zarurligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar

buxgalteriya terminlari, audit terminlari, statistik tahlil, leksikografiya, sinonimiya, antonimiya, korpus lingvistika, tarjima izchilligi.

ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ БУХГАЛТЕРСКОЙ И АУДИТОРСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: КОРПУСНЫЙ И ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Аннотация

В данной статье представлен статистический и лексикографический анализ бухгалтерских и аудиторских терминов в английском и узбекском языках. Исследование выполнено на основе корпусной лингвистики, когнитивной терминологии и терминографии. В качестве материала использованы *British National Corpus (BNC)*, *Corpus of Contemporary*

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

American English (COCA), документы *IFRS* и *ISA*, а также узбекские нормативные и учебные источники. В процессе анализа были изучены частотность терминов, их переводные варианты, отношения синонимии и антонимии. В результате обоснована необходимость разработки единых нормативных форм терминов для обеспечения последовательности в узбекской терминологии.

Ключевые слова

Бухгалтерская терминология, аудиторская терминология, статистический анализ, лексикография, синонимия, антонимия, корпусная лингвистика, терминологическая последовательность.

CONSISTENCY OF ACCOUNTING AND AUDIT TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK: A CORPUS-BASED AND LEXICOGRAPHIC APPROACH

Abstract

This article presents a statistical and lexicographic analysis of accounting and audit terminology in English and Uzbek. The study is based on corpus linguistics, cognitive terminology, and terminography. The research material includes the *British National Corpus (BNC)*, *Corpus of Contemporary American English (COCA)*, *IFRS* and *ISA* documents, as well as Uzbek normative and educational sources. During the analysis, the frequency of terms, their translation variants, and relations of synonymy and antonymy were examined. As a result, the need to develop unified normative term forms to ensure consistency in Uzbek terminology has been substantiated.

Keywords

accounting terminology, audit terminology, statistical analysis, lexicography, synonymy, antonymy, corpus linguistics, translation consistency.

Kirish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tilshunoslikda terminlarning leksikografik tahlilida statistik usullar katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, buxgalteriya va audit sohalariga oid terminlarning real matnlarda qanday chastotada uchrashi, ularning tarjima variantlari hamda kontekstual qo‘llanish holatlari korpus lingvistika, kognitiv terminshunoslik va terminografiya yo‘nalishlarida muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi buxgalteriya va audit terminlarining statistik jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid terminlar mamlakatimiz tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlarida muhokama qilinganligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, g‘arb tilshunosligida J.Alver, L.Alver, K.Norberg, MDH davlatlari tilshunosligida, N.Gavrilova, O.Baran, O.Dovbish, Ye.Maroyevich, E.Trifonova, Yu.Akinin, L.Prosvirnina, V.Varlamov, N.Trufanova, A.Zaripova, A.Davletukayeva, B.Raximberdiev, A.Xudoyberganova kabi dunyo tilshunoslari, o‘zbek tilshunosligida esa, E.Umarxo‘jayev, H.Dadaboyev, Ch.Abdullayeva, O.Axmedov, E.Shirinova, N.Atayeva, Sh.Abdullayeva I.Xaydarovlar terminologiya sohasiga tadqiqotlari bilan hissa qo‘shganlar.

O‘zbek tilshunosi H. Dadaboyev o‘z monografiyasida bu terminlarning tarixiy-etimologik asoslarini o‘rganib, ularni o‘z va o‘zlashgan qatlamlarga ajratgan. Shuningdek, ularning shakllanishiga ta’sir etgan ekstralingvistik omillarni ham tahlil qilgan.

Tadqiqot materiali va metodologiyasi

Global iqtisodiy integratsiya sharoitida buxgalteriya va audit terminlarining yagona va izchil qo‘llanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va audit standartlari (ISA) ingliz tilida ishlab chiqilganligi sababli, ushbu terminlarning o‘zbek tiliga to‘g‘ri va barqaror tarjima qilinishi milliy terminologiya tizimi uchun dolzarb masala hisoblanadi. Terminlarning noto‘g‘ri yoki turlicha tarjima qilinishi moliyaviy hujjatlarning talqinida xatoliklarga olib kelishi mumkin.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shu nuqtayi nazardan, buxgalteriya va audit terminlarini statistik va leksikografik tahlil qilish, ularning real matnlardagi qo‘llanish chastotasini aniqlash hamda semantik munosabatlarini o‘rganish bugungi tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tahlil quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi:

Ingliz tilidagi korpuslar:

- *British National Corpus (BNC)*
- *Corpus of Contemporary American English (COCA)*
- *IFRS* va *ISA* hujjatlari (2022–2024)

O‘zbek tilidagi materiallar:

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan e’lon qilingan normativ hujjatlar
- Buxgalteriya darsliklari (2020–2024)
- O‘zbek matbuoti (xalq iqtisodiyoti, moliya, auditga oid maqolalar)

Statistik indikatorlar sifatida termin chastotasi, tarjima variantlari soni, kontekstual qo‘llanish turlari va sinonimik variantlar o‘rganildi.

Natijalar va tahlil

Leksikografik tahlil jarayonida terminlarning izohli lug‘atlardagi berilishi, ularning semantik chegaralari va qo‘llanish sohasi muhim ahamiyatga ega. Masalan, ingliz tilidagi *asset* termini iqtisodiy resurs sifatida izohlanadi va bu terminning o‘zbekcha muqobili sifatida *aktiv* so‘zi normativ tusga ega. Biroq ayrim manbalarda *mol-mulk* yoki *resurs* shakllarida uchrashi leksikografik nomuvofiqlikni yuzaga keltiradi.

Xuddi shuningdek, *revenue* terminining *daromad*, *tushum* va ba’zan *foyda* tarzida tarjima qilinishi semantik aniqlikni susaytiradi. Aslida, *revenue* va *profit* terminlari o‘zaro sinonim emas, balki turli moliyaviy tushunchalarni ifodalaydi. Bu holat terminlarni lug‘atlarda aniq differensial belgilari bilan berish zaruratini ko‘rsatadi.

1-jadval. Ingliz tilidagi eng ko‘p ishlatiladigan terminlar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Termin	COCA'dagi chastota	IFRS'dagi chastota	Ma'nosi
asset	15,200	4,570	aktiv
liability	8,130	3,240	majburiyat
equity	7,890	2,110	kapital
revenue	9,780	3,900	daromad
expense	6,410	2,900	xarajat
profit	12,600	2,730	foyda
audit	5,780	3,100	moliyaviy tekshiruv
depreciation	3,980	1,950	amortizatsiya
balance sheet	4,560	2,870	balans
financial report	3,320	2,430	moliyaviy hisobot

Mazkur terminlar yuqori chastotasi sababli buxgalteriya sohasining yadro terminlari hisoblanadi. Ularning izchil tarjimasi xalqaro kommunikatsiyada muhim ahamiyatga ega.

2-jadval. O‘zbek tilidagi asosiy terminlar (matbuot va darsliklarda)

Termin	Chastota (matbuot)	Chastota (darslik)	Inglizcha ekvivalenti
aktiv	2,430	3,120	asset
majburiyat	1,970	2,580	liability
kapital	2,400	2,310	equity
daromad	2,150	2,890	revenue
foyda	1,720	2,460	profit
xarajat	2,030	2,620	expense
audit	1,360	1,850	audit
balans	1,930	2,140	balance sheet
amortizatsiya	980	1,230	depreciation
hisobot	2,200	2,750	report

Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘zbek tilida buxgalteriya terminlarining asosiy yadrosi inglizcha ekvivalentlarga juda yaqin. Biroq ba’zi terminlar chalkash qo‘llanilishi aniqlangan: *daromad* va *foyda* sinonim sifatida ishlatiladi; *audit* termini ba’zan *tekshiruv* deb tarjima qilinadi, bu esa huquqiy aniqlikni buzadi.

3-jadval. Inglizcha terminlar va ularning o‘zbekcha variantlari

Inglizcha termin	Variant 1	Variant 2	Variant 3
revenue	daromad	tushum	foyda
audit	audit	tekshiruv	auditorlik
equity	kapital	sof aktiv	ulush
liability	majburiyat	qarzdorlik	qarz

Bir terminning bir nechta variantlarda qo‘llanishi tarjima izchilligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, o‘zbek terminshunosligida yagona normativ termin shakllarini ishlab chiqish zarur.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Korpus lingvistikasi asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi buxgalteriya va audit terminlari ko‘pincha barqaror kollokatsiyalar tarkibida qo‘llaniladi. Masalan: *financial statement, audit opinion, tax liability, operating revenue.* Bu kabi birikmalar terminlarning semantik maydonini aniqlashga yordam beradi. O‘zbek tilida esa ushbu kollokatsiyalarning tarjimasida barqarorlik yetarli darajada emas: *audit opinion* ba’zan *audit xulosasi*, ba’zan *auditorlik fikri* shaklida beriladi. Statistik jihatdan bir variantning ustunligi aniqlanmaganligi terminografik muammolarni yuzaga keltiradi.

Terminologik tizimda sinonimiya hodisasi til boyligini ko‘rsatsa-da, ilmiy va amaliy sohalarda u izchillikni buzuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida *majburiyat*, *qarz* va *qarzdorlik* terminlari bir xil tushunchani anglatayotgandek qo‘llanadi, biroq ularning semantik qamrovi turlicha.

Antonimik munosabatlar esa terminlarning tizimli xarakterini ochib beradi: *asset – liability, income – expense, profit – loss.* Bu juftliklar moliyaviy tafakkurning asosiy mantiqiy tayanchlarini tashkil etadi va terminologik tizimning ichki strukturasini aniqlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari: buxgalteriya va audit terminlari bo‘yicha ikki tilli terminologik lug‘atlar tuzishda; moliyaviy hujjatlarni tarjima qilish jarayonida; oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va audit fanlarini o‘qitishda; milliy terminologiya siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Ingliz va o‘zbek tillaridagi buxgalteriya va audit terminlarining asosiy yadrosi o‘xshash bo‘lsa-da, o‘zbek tilida sinonimik terminlarning mavjudligi izchillikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, har bir termin uchun yagona, xalqaro standartlarga mos shaklni belgilash muhim. Ushbu natijalar terminshunoslik, tarjimashunoslik va korpus lingvistikasining nazariy hamda amaliy rivojiga xizmat qiladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Corpus of Contemporary American English (COCA). – Brigham Young University, 2024.
2. International Financial Reporting Standards (IFRS). – IFRS Foundation, London, 2023.
3. International Standards on Auditing (ISA). – IFAC, New York, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. *Moliyaviy hisobot standartlari bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar*. – Toshkent, 2023. – B. 52
5. Dildora A. M. *Ingliz va o‘zbek tillaridagi buxgalteriya va audit sohasiga oid terminlarning leksik-semantik tadqiqi*. – Toshkent: Fan, 2025 – B.106
6. Makhmudjanovna, A.D. The Role of Accounting and Auditing Terminology in the Language System. 2023, – P. 167-168.
7. Makhmudjanovna, A.D. Approaches to Studying Accounting and Auditing Terms. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2023, 2(11), – P. 573-576
8. Азимова, Д. М. (2017). Модели соотносительных рядов лексемой прилагательного в качестве постоянного члена. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-2), 38-40.
9. Azimova, D. (2017). Modern pedagogical technologies. *Теория и практика современной науки*, (4), 3-5.